2. Khodiev V.Yu., Shodiev T.Sh., Berkinov V.V. Econometrics: Study guide. -T.: ECONOMY, 2018. -178 p.
3. Aspen hysys software and technical complex and design of a hydrocracking device in it. Kh Yusupov, S Farkhodov, Sh Doliyev - Eurasian Journal of Social..., 2022 - inacademy.uz.

4. Quality of communal services—as a factor of economic development. K Yusuf To‘xtasin og‘li, Sh Dolliyev- Galaxy International Interdisciplinary..., 2022 - giirj.com



O'ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQRILADIGAN SHAROB TURLARI

Ashurova Maftuna Shavkat qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya: Sharob yoki fermentlangan meva suvidan tayyorlanadigan alkogolli ichimlikdir. Meva suvi achishi natijasida undagi xamirturushfruktozani spirtga aylantiradi. Sharob ko'pincha uzumdan, ba'zida olma, marjonmeva yoki boshqa mevalardan tayyorlanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda uzumning 37ta turi yetishtiriladi, respublikada 40dan ortiq vino zavodlari faoliyat yuritmoqda.

Kalit so'zlar: Fermentlar, musallas, madera, portveyn, xeres, desert, shampan, „Bayan shirey“, „Rkatsitelli“, „Bihishti“, „Farhod“, „Vassarg'a“, „Oq musallas“, „O'zbekiston“, „Qizil musallas“.

Qadimda Sharq xalqlari Vinoni sharob, may, musallas deb yuritishgan. Hoz. davrda Vino jahondagi 45 mamlakatda ishlab chiqariladi va deyarli barcha mamlakatlarda iste'mol etiladi. Jahon mamlakatlari o'rtasida Fransiya va Italiyada eng ko'p uzum vinosi ishlab chiqariladi (aholi jon boshiga o'rtacha 83—86 l uzum vinosi iste'mol qilinadi). Ayrim turdagi markali Vinolar uzumning faqat bir navidan tayyorlanadi. Vino rangi (oqish, pushti, qizil), mazasi, xushbo'yiligi, kuchliligi hamda tayyorlash texnologiyasi bilan ham farqlanadi. Vinoning musallas (tabiiy), kuchli, desert (shirin), gazli va xushbo'y xillari bor. Musallas uzum sharbatini bijg'itib olinadi; tarkibida 9—12% spirt bo'ladi. Bunday Vino sof (to'la bijg'igan, tarkibida deyarli qand qolmagan) va yarim shirin (tarkibida 3—8% qand bo'lgan) xillarga bo'linadi. Oq vino konyak ishlab chiqarishda xom ashyo hisoblanadi. Quvvatlantirilgan Vino (madera, portveyn, xeres va boshqalar) sof (tarkibida 17—20% spirt, 3% gacha qand) va yarim shirin (17—20% spirt, 10% gacha kand bo'lgan) xillarga bo'linadi. Desertino Vino tarkibida 12—17% spirt bo'ladi; qand miqdoriga ko'ra yarim shirin (5—10% qand), shirin (10—20% qand) va likyor (20% dan ko'p qand) xillarga bo'linadi. Shampanino Vino musallaslarni ikkinchi marta bijg'itib va qand qo'shib tayyorlanadi. Tarkibida 10,0—13,5% spirt bo'ladi; qand tarkibiga qarab, sof (2,5% qand), nim shirin (4,5%), yarim shirin (6,5%) va shirin (8,5%) xillarga bo'linadi. Uzumdan vino tayyorlash texnologiyasi asrlar davomida ishlab chiqilgan. Yengil alkogolli ichimliklarni fermentatsiyalash va qarish jarayoni shunga o'xshash sxemaga muvofiq amalga oshirilganiga qaramay, har bir etkazib beruvchining o'z sirlari bor, ular ko'pincha davlat sirlaridan ko'ra ko'proq qo'riqlanadi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Kavkazda, Fransiya yoki Italiyada

ko'p avlodlar davomida uzum etishtirish va sharob ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan oilalar mavjud. Ular buni san'at darajasiga ko'tarishdi va hech qachon nafaqat begonalar, balki bir-birlari bilan quyosh ichadigan ichimliklar sirini ham bo'lishmaydilar. Bo'g'zi tor shisha idish (butilka)larga quyilgan Vinoni salqin va quruq (8—16°) binolarda saqpash lozim. Spirti darajasi past va shampan Vinolari butilkani yotqizilgan holda saqlanganda sifati buzilmaydi. Oq musallas va shampan V.lari 3—5, kizil Vinolar 5—10, desert Vinolar 18—20 yil, likyor va kuchli V.lar 100 yil sifatini yo'qotmay saqlanishi mumkin. O'zbekistonda V.ning 60 dan ortiq navlari: „Bayan shirey“, „Rkatsitelli“, „Bihishti“, „Farhod“, „Vassarg'a“, „Oq musallas“, „O'zbekiston“, „Qizil musallas“, „Sijjak“, „Qora go'zal“, „Kaberne“, „Pino“ va boshqalar ishlab chiqariladi.

Quvvatlangan vinolar uzum sharbatini bijg'itish vaqtida, ma'lum miqdordagi qandni saqlab qolish uchun va bijg'itishni to'xtatish uchun spirtrektifikat qo'shib tayyorlanadi. Ular tarkibida spirt miqdori 17-20 % , shakar miqdori 14 % gacha bo'ladi. Bu tipdagi vinolarga portveyn, madera, xeres va marsala vinolari kiradi. Ularning shakllanishiga oksidlanish-qaytarilish va karbonilamin reaksiyalari asosiy rolni o'ynaydi. Bu vinolar tayyorlashda maxsus texnologiyalarni qo'llash mana shu ikki reaksiyani kuchaytirishga asoslangan. Bu vinolar o'zining xushbo'yligi, spirtning ko'pligi va ekstraktivligi bilan boshqa vinolardan farq qiladi. Ular har qanday sharoitda ham uzoq vaqt o'zini sifatini o'zgartirmasdan saqlanadi. Quvvatli vinolar tayyorlashda ishlatiladigan uzum navlari tarkibida qand, fenol va xushbo'y moddalar ko'p miqdorda bo'lishi kerak. Quvvatli vinolar ikki xil texnologik yo'nalishda tayyorlanadi: 1. Bijg'itilayotgan sharbatga spirt qo'shishi orqali, bunda bijg'ish jarayoni to'xtab, vinoda kerakli miqdordagi qand saqlanib qolinadi, bu portveyn va madera tayyorlashda uchun ishlatiladi. 2. Asosiy va yordamchi materiallarni kupaj qilish bilan (spirtlangan sharbat vakumda olingan sharbat) bu xeres, marsala va ba'zi yuqori sifatli portveynlar tayyorlashda qo'llaniladi. Bizning mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlarga asosan quvvatli vinolar tarkibida bijg'itish jarayoni natijasida kamida 3 % spirt hosil bo'lishi kerak.

O'zbekistonda vinochilik sanoatining ham istiqbollari porloq bo'lishi mumkin, buning uchun respublikada asosiy xom-ashyo – ya'ni uzum yetarli. Lekin aynan vinochilikni samarali rivojlantirish uchun bir qator muammolar majud bo'lib qolmoqda. Birinchidan, bu O'zbekiston uzumining o'ta shirinligi, quyoshli kunlar ko'pligi sababli O'zbekistonda yetishtirilgan uzumlarda shakar miqdori juda yuqori bo'ladi. Bunday uzumdan esa spirtsiz vino (suxoe vino) ishlab chiqarish mushkul. Shuning uchun O'zbekistonda asosan muskat, kagor va portveyn kabi shirin va desert vinolar ko'proq ishlab chiqariladi. Bunday vinolarga esa jahon bozorida talab

kamroq, deydi ekspert. So‘nggi vaqtlarda quruq vino ishlab chiqarish uchun O‘zbekistonda boshqalarnikiga o‘xshamagan texnologiya qo‘llanilmoqda. Bunda uzumlar hali pishmasdan terib olish yoki uzumzorlarni tog‘ oldi hududlarida tashkil qilish, mevalarni qo‘yoshdan himoya qiladi va shakar miqdori oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Portveynizatsiya jarayoni - bu vinoda harorat ta’sirida ro‘y beradigan oksidlanish-qaytarilish jarayoni bo‘lib, bunda vinomaterial yarim oksidlanadi, yetilish jarayonida 50-80 mg/l atrofida kislorod sarflanadi. Portveynizatsiya jarayoni ikkita faktor - harorat va haroratning ta’sir etish vaqti bilan xarakterlanadi. Portveynizatsiya jarayoni, bu murakkab kimyoviy jarayon bo‘lib, bunda kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar ro‘y beradi. Bunda oksidlanish bilan birga, fenol va azotli birikmalar, spirtlar, aldegidlar o‘zaro reaksiyaga kirishadi. Aminokislotalar bilan qandlar reaksiyaga kirishib qo‘ng‘ir modda - melanoidlarni hosil qiladi. Aldegidlar va efirlarni hosil bo‘lishi natijasida portveyni asosi shakllanadi. Etil spirt va kislotalar miqdori kamayadi; havo ta’siriga chidamsiz bo‘lgan moddalar va tanin-oqsil komplekslari cho‘kmaga tushadi; fenol birikmalar oksidlanadi; antotsianlar, leykoantotsianlar va katexinlar o‘zgarishga uchraydi. Uglevodlarni degradatsiyasi natijasida hidi yoqimli bo‘lgan furfural va oksimetilfurfurol moddalarini hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevni 2018 yil 28 fevraldagi “ Vinochilik soxasini va alkogolli maxsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Keys, David. „Now that's what you call a real vintage: professor unearths 8,000-year-old wine“. The Independent (28-dekabr 2003-yil). 19-avgust 2008-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 25-iyun 2008-yil.
3. Berkowitz, Mark (1996). „World's Earliest Wine“. Archaeology. 49-jild, № 5. Archaeological Institute of America. 2011-06-05da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 25-iyun 2008-yil.
4. Food and Agriculture Organization of the United Nations/Production statistics: 2009 wine production in the world

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АРГОНОВОЙ ПРОДУВКИ В
СТАЛЕРАЗЛИВОЧНОМ КОВШЕ С ЦЕЛЬЮ ПОВЫШЕНИЯ
КАЧЕСТВА СТАЛИ

*Турсунов Н.К. доктор технических наук, профессор
кафедры «Материаловедение и машиностроение»*

*Ташкентский Государственный Транспортный Университет
Узбекистан, г. Ташкент*

Тоиров О.Т. докторант

*кафедра «Материаловедение и машиностроение»
Ташкентский Государственный Транспортный Университет
Узбекистан, г. Ташкент*

Саидирахимов А. А. инженер

*АО "Литейно-механический завод"
Узбекистан, г. Ташкент*

Annotatsiya: Ushbu maqola suyuq po'latni pechdan tashqari qayta ishlashga, xususan, sifatini yaxshilash uchun metallni inert gazlar bilan tozalashga bag'ishlangan. Inert gazlardan foydalanishning asosiy afzalliklari, tozalash moslamalarini samarali joylashtirish, shuningdek, suyuq po'latning gomogenizatsiya vaqtining inert gazning hajmli oqim tezligiga bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: suyuq po'lat, argon bilan tozalash, matematik modellashtirish, tozalash uchun blok, gomogenlash.

Аннотация. Данная статья посвящена внепечной обработке жидкой стали, в частности, продувки металла инертными газами для повышения его качества. Рассматриваются основные преимущества использования инертных газов, эффективное расположение продувочных блоков, а также зависимость времени гомогенизации жидкой стали от объемного расхода инертного газа.

Ключевые слова: жидкая сталь, продувка аргоном, математическое моделирование, продувочный блок, гомогенизация.

Annotation. This article is devoted to the out-of-furnace treatment of liquid steel, in particular, the purging of metal with inert gases to improve its quality. The main advantages of using inert gases, the efficient arrangement of purge blocks, as well as the dependence of the homogenization time of liquid steel on the volume flow of inert gas are considered.

Key words: liquid steel, argon purge, mathematical modeling, purge block, homogenization.

Одна из основных задач, которые ставят перед собой металлурги, является снижение производственных затрат при поддержание высокого качества металла. Эта цель достигается, за счет оптимизации проводимых технологических процессов. Общепринятая технология гомогенизации стали инертными газами является важной стадией производства стали. Продувка инертного газа (аргон) в расплав в сталеразливочном ковше является наиболее доступным. Процессы гомогенизации при продувке аргоном в расплав на ковше исследовали многие ученые.

Обычно рекомендуется продувать снизу. Продувка осуществляется в ковше инертным газом, преимущественно аргоном, что облегчает очищение жидкой стали. Газообразный аргон (Ar) предпочтителен для очищения из-за его инертного характера, помимо его очень низкой растворимости в жидкой стали. Транспортирующийся инертный газ движется со дна ковша к верх, т.е. к шлаку и расширяется за счет нагрева и снижения ферростатического давления по ходу подъема. Однако процесс продувки потребует гораздо меньшей скорости потока газа. Газообразный аргон продувают при умеренной скорости, менее $0,6 \text{ Нм}^3/\text{мин}$, что является экстремумом для достижения гомогенизации жидкой стали по температуре и по химическому составу. Интенсивность перемешивание газа имеет большое значение, потому что сталелитейные заводы хотят связать качество и состав стали на эффект перемешивания.

Основными преимуществами продувки жидкой стали инертными газами является:

- удаление растворенных газов из жидкой стали;
- гомогенизация по температуре и составу;
- удаление неметаллических включений;
- равномерное диспергирование легирующих элементов и добавок;
- повышение скорости химической реакции.

Из-за более низкой стоимости огнеупоров, лучшая эффективность и более простая установка является продувка расплава инертными газами снизу чем по методу погружение фурмы сверху.

Цель настоящей работы состоялась в том, чтобы получить данные о влияние объемного расхода инертного газа и положения продувочного блока на днище ковша в процессе гомогенизации. На рисунке 1 показаны исследуемые положения продувочного блока. В работе изучено только позиции O, A, D, E. Определение условий физического подобия основывалось на проверенной и использованной процедурах.




Рисунок 1 - Положения элементов мешалок на днище ковша, используемые для моделирования

Препятствия, возникающие при физическом моделировании, в большинстве случаев можно преодолеть с помощью математического моделирования процесса. Совсем недавно, математическое моделирование было наиболее распространенным инструментом, поскольку воодушевлены динамичным развитием IT-технология и появление более точных числовых процедуры и компьютерное программное обеспечение. В математическом моделировании процесс перемешивания металлической ванны основано на уравнениях Навье-Стокса. В 1979 г. Джулиан Секели и др., которые предприняли попытку численно стимулировать явление турбулентного течения в ковше во время продувки газа с применением уравнений Навье-Стокса. С тех пор, проблема моделирования перемешивание разрабатывалась в многочисленных публикациях; и к этому вопросу было посвящено отдельное направление исследований, описывающиеся как CFD (вычислительная гидродинамика). Исследования проводились с помощью числовых моделирований (вычислительная гидродинамика – CFD). На рисунке 2 показано математическое моделирование продувки стали в сталеразливочном ковше с продувочным блоком.




Рисунок 2 - Моделирование продувки стали в сталеразливочном ковше

Современное математическое моделирование на основе CFD позволяет ознакомиться с течением жидкой стали, присутствующей в ковше, следовательно, определить время необходимое для гомогенизации жидкого металла.

Для целей промышленной интерпретации время гомогенизации, измеренное на модели обработаны графически и показано влияние объемного расхода аргона для достижения время гомогенизации для четырех положений продувочных блоков в днище ковша с маркировкой O, A, D и E; полученная регрессия функции и коэффициенты их детерминации для отдельных смоделированные варианты показано на рисунке 3.




Рисунок 3 – Зависимость времени гомогенизации от объемного расхода инертного газа

Как видно из рисунка, с увеличением объемного расхода аргона уменьшается время гомогенизации. Это снижение не слишком значительная и значение времени гомогенизации варьируется от 75 до 125 секунд в области выше 400 л/мин. Вопреки к этому резко увеличивается значение времени гомогенизации до 440 секунд в зависимости от положения продувочного блока, когда расход составляет 50 л/мин.

С точки зрения времени гомогенизации, кривые также указывают на то, что существуют явные различия между продувкой с продувочными блоками на своих позициях. Позиции O и A являются наихудшими, а для позиций D и E видно относительно одинаковые и короткое время гомогенизации. Положение D можно рассматривать как наиболее выгодное положение продувочного блока, потому что у него самый короткий время гомогенизации по сравнению с другими позициями.

Заключение: Метод математического моделирования применяется для различных исследований. Основными факторами моделирования является продувка аргона через продувочные блоки, расположенные в днище ковша. Получена зависимость времени гомогенизации от объемного расхода инертного газа при различных вариантах продувки.

Показано, что расчеты, выполненные на основе математической модели, позволили прогнозировать состояния движения жидкой стали в

сталеразливочном ковше. По уравнению Навье-Стокса продувка аргоном способна уменьшить количество неметаллических включений.

Список использованных источников:

1. Турсунов, Н. К., &Тоиров, О. Т. (2021). Снижение дефектности рам по трещинам за счёт применения конструкции литниковой системы.
2. Тен, Э. Б., &Тоиров, О. Т. (2020). Оптимизация литниковой системы для отливки «Рама боковая» с помощью компьютерного моделирования. In Прогрессивные литейные технологии (pp. 57-63).
3. Toirov, O. T., Tursunov, N. Q., Nigmatova, D. I., &Qo'chqorov, L. A. (2022). USING OF EXOTHERMIC INSERTS IN THE LARGE STEEL CASTINGS PRODUCTION OF A PARTICULARLY. WebofScientist: InternationalScientificResearchJournal, 3(1), 250-256.
4. Toirov, O. T., Tursunov, N. Q., &Nigmatova, D. I. (2022, January). REDUCTION OF DEFECTS IN LARGE STEEL CASTINGS ON THE EXAMPLE OF" SIDE FRAME". In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 19-23).
5. ТУРСУНОВ, Н., & ТОИРОВ, О. СНИЖЕНИЕ ДЕФЕКТНОСТИ РАМ ПО ТРЕЩИНАМ ЗА СЧЕТ ИЗМЕНЕНИЯ КОНСТРУКЦИИ ЛИТНИКОВОЙ СИСТЕМЫ. ВЯ Негрей, ВМ Овчинников, АА Поддубный, АВ Пигунов, АО Шимановский, 162.
6. Toirov, O., &Tursunov, N. (2021). Development of production technology of rolling stock cast parts. In E3S WebofConferences (Vol. 264, p. 05013). EDP Sciences.
7. Кучкоров, Л. А. У., Турсунов, Н. К., &Тоиров, О. Т. У. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЖНЕВЫХ СМЕСЕЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ГАЗОПРОНИЦАЕМОСТИ. Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences, 1(8), 831-836.
8. Турсунов, Н. К., Тоиров, О. Т., Железняков, А. А., & Комиссаров, В. В. (2021). Снижение дефектности крупных литых деталей подвижного состава железнодорожного транспорта за счет выполнения мощных упрочняющих рёбер.
9. Boburbek Toiro'g'li, T., Saminjonovich, J. T., &OtabekToiro'g'li, T. (2021). Ob'yektlarni Tanib Olishda Neyron Tarmoqning O'rni. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журналі, 1(6), 681-684.
10. Toirov, B. T., Jumaev, T. S., &Toirov, O. T. (2021). OBYEKT LARNI TANIB OLISHDA PYTHON DASTURIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. Scientificprogress, 2(7), 165-168.

**CHIQUINDI SUYAK MAHSULOTLARIDAN CHORVA MOLLARI UCHUN
BIOLOGIK FAOL QO`SHIMCHALAR TAYYORLASH**

M.F.Umarqulova

Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo ta'lim yo`nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: D.A.Karimova

So'ngi yillarda dunyo aholisining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ulardan hosil bo'ladigan biologik chiqindilar ya'ni chiqindi suyak mahsulotlarining ko'payishiga olib keladi. Bu turdagi biologik chiqindilardan chiqayotgan zararli bakteriyalar hamda badbo'y hidlar aholi salomatligiga va ekalogiyaga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biologik chiqindilarni to'g'ri bartaraf qilish hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Xitoy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetakchi ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqindi suyakdan kalsiyli o'g'it olishni joriy qilganligi, suyaklarni qayta ishlash ustida tajribalar o'tkazishga qiziqiqsh uyg'otdi. Ko'p yillik tadqiqot va ishlanmalar natijasida biz nafaqat samarali, balki ekologik jihatdan ham xavfsiz biofaol modda yaratish ustida ishladik. Ishonchimiz komilki, suyakdan olingan biologik kaltsiyli moddamiz fermerlarga chorvachilikni rivojlantirishda, chorva mollari go'shtining sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Bizning suyakdan olgan biologik faol mahsulotimiz bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

➤ tabiiy va organik - 100 foiz tabiiy va organik materiallardan tayyorlangan bo'lib, uni o'simliklar va atrof-muhit uchun xavfsiz qiladi;

➤ kaltsiyning yuqori miqdori- bizning biofaol mahsulotimiz chorva mollari yemlariga qo'shiladi, bunda ularning o'sishi va rivojlanishi yaxshilanadi.

Suyakdan olingan biologik faol mahsulot fermerlar va atrof-muhit uchun bir qator afzalliklarni beradi:

➤ chorvachilikning rivojlanishi, chorva mollarining yemlaria qo'shilganda, qoramol va qo'ylarning rivojlanishi, semirishini tezlashtiradi;

➤ ekologik toza, tabiiy va organik materiallardan tayyorlanganligi uchun chorva mollari va atrof-muhit uchun xavfsiz hisoblanadi;

➤ kamaytirilgan yemning qo'llanilishi, xarajatlarni kamaytiradi va ortiqcha xavfini kamaytiradi;

➤ chorva mollarning salomatligini yaxshilash, mahsulot foydali mikroorganizmlarni rag'batlantirish orqali qoramollar sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi.

Insoniyat har kuni minglab tonna organik chiqindilarni ishlab chiqaradi, ular ko'p holatlarda katta-katta chiqindi poligoniga aylanadi, shuning uchun bu chiqindilardan ozuqa tayyorlash uchun xom-ashyo sifatida foydalanish ko'proq e'tiborga loyiq bo'lgan soha hisoblanadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat chiqindilaridan hayvonlarning ozuqasi sifatida foydalanish, ularning oziqlanish imkoniyatlarini yanada oshishiga turtki bo'ladi. Ushbu sohadagi ba'zi tadqiqotlar oziq-ovqat chiqindilaridan hayvonlarning ozuqasida foydalanishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Suyak chiqindilarini qayta ishlash jarayonida kollagen hosil bo'ladi. Go'sht mahsulotlari chiqindilari atamasi deganda go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yaroqsiz bo'lgan xom ashyo yoki go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan foydalanilmagan qoldiq suyaklar shaklidagi mahsulotlari tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, suyakdan olinadigan biofaol qo'shimchalar qo'shish orqali chorva mollari yemlariga qo'shilganda, qoramollarda oqsil yetishmovchiligining oldi olinadi. Shu bilan birga, tez sur'atlar bilan ko'payib borayotgan aholining oziq-ovqat ehtiyojiga bo'lgan ta'lablari qondiriladi. Atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar miqdori kamayadi va etrof-muhitga yetkaziladigan zarar kamayadi.

Ushbu olib borgan tadqiqotimizda biz oziq-ovqat chiqindilaridan biologik yem-hashak olish tamoyillarini ishlab chiqdik. Chiqindilarni qayta ishlash yo'li orqali biz fermer xo'jaliklari, tadbirkorlik sohalaridagi oziq-ovqat zanjirini uzilib qolmasligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Go'sht chiqindilaridan olinadigan qo'shimcha mahsulotlar ozuqaviy va sanitariya-gigiyena nuqtai nazaridan hayvonlar ozuqasida foydalanish uchun mos ekanligi hamda olingan turli xil ovqat prototiplari hayvonlar uchun ozuqa bozorining barcha talablariga javob berishi aniqlandi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. EC, Joint Research Centre, Institute for Environment and Sustainability (2012). Characterisation factors of the ILCD Recommended Life Cycle Impact Assessment methods. Database and Supporting Information, first ed. EUR 25167. Luxembourg. Publications Office of the European Union.

2. Eskin, N. A. M., & Robinson, D. S. (2000). Food shelf life stability. Chemical, biochemical and microbiological changes. CRC Press LLC.

OMONIMLAR VA SINONIMLAR SEMASOLOGIYASI

Abdunazarova Nazira Dilshod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universitet

Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi

2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi omonim va sinonim so'zlarning semasologiyasi haqida so'z yuritiladi. Omonimlar va sinonimlarning kelib chiqishi, ularning turlari stilistik va amaliy ahamiyati o'zbek tilshunoslari tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Maqolada omonimlarning kontekstual qo'llanilishi va sinonimlarning uslubiy imkoniyatlari batafsil ko'rib chiqiladi, shuningdek, omonim va sinonimlarning o'rni, ularning o'rgatilishi va til didaktikasi bo'yicha tavsiyalar ham keltiriladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasi doirasida sun'iy intellect va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarida omonim va sinonimlarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

ANNOTATION

This article discusses the semasiology of homonyms and synonyms in the Uzbek language. The origin of homonyms and synonyms, their types, and their stylistic and practical significance are analyzed based on the research of Uzbek linguists. The contextual usage and stylistic possibilities of homonyms and synonyms are thoroughly examined. Additionally, the role of homonyms and synonyms, their teaching, and recommendations on language didactics are provided. The article also reflects on the role of homonyms and synonyms in artificial intelligence and natural language processing technologies, based on scientific research outcomes.

Kalit so'zlar: Omonimlar, sinonimlar, semasologiya, o'zbek tilshunosligi, stilistik imkoniyatlar, kontekstual qo'llanish, til didaktikasi, sun'iy intellect, NLP

Keywords: Homonyms, synonyms, semasiology, Uzbek linguistics, stylistic possibilities, contextual usage, language didactics, artificial intelligence, NLP.

o'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OMONIMLAR VA SINONIMLAR SEMASOLOGIYASI

o'zbek tilida so'zlarning ma'nolari va ularning o'zaro bog'lanishlari tilshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Semasologiya, ya'ni so'z ma'nolarini o'rganish fani doirasida omonim va sinonim so'zlar o'z o'rniga ega. Omonimlar bir xil shaklda ifodalangan, ammo ma'nolari bir-biridan farq qiluvchi so'zlar bo'lsa, sinonimlar esa bir xil yoki o'xshash ma'noni anglatib, lekin turli shaklda ifodalangan so'zlardir.

OMONIMLAR SEMASOLOGIIYASI

Omonimlik o'zbek tilida keng tarqalgan hodisalardan biri bo'lib, u tilning taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladi. Omonimlarning shaklan bir xil bo'lib, lekin ma'no jihatidan farq qilishi tilning ko'p qirraliligidan dalolat beradi. o'zbek tilida omonimlar ikki turga bo'linadi: to'liq omonimlar va qisman omonimlar. To'liq omonimlar shakl va talaffuz jihatidan bir xil bo'lib, butunlay boshqa ma'nolarni ifodalaydi, masalan, "qovun" so'zi o'zbek tilida ikki xil ma'noda qo'llaniladi: biri "sabzavot", ikkinchisi esa "ajablanarli holat" ma'nosida keladi. Qisman omonimlar esa faqat bir qismida o'xshashlikka ega bo'lib, masalan, "uchmoq" so'zi "qushning uchishi" va "avtomobil bilan harakatlanish" ma'nolarida kelishi mumkin.

Tilshunos olimlar omonimlarning o'zbek tilidagi o'rganilishiga kata e'tibor berib kelmoqdalar. Jumladan, o'zbek tilshunosi N.Mahmudovning asarlarida omonimlarning kelib chiqish sabablari va ularning amaliyotdagi o'rni keng tadqiq qilingan. Unga ko'ra, omonimlarning yuzaga kelishiga ikki asosiy omil mavjud: so'zlar o'rtasidagi tasodifiy o'xshashlik va so'zlarning ma'no taraqqiyoti natijasida bir-biriga yaqinlashishi. Shuningdek, Mahmudovning fikricha, omonimlar tilning boyligi sifatida qaralishi lozim, chunki ular nutqni rang-baranglashishda muhim rol o'ynaydi [1].

Omonimlarni aniqlashda muhim o'rin tutadigan tamoyillardan biri bu kontekst hisoblandi. Kontekst omonim so'zlarning qaysi ma'noda qo'llanilayotganligini aniqlashga yordam beradi. Misol uchun, "bosh", rahbar yoki boshliq ma'nosida "bosh", shuningdek, "boshidan o'tgan hodisalar" ma'nosida ham ishlatiladi. Har bir holatda so'zning ma'nosini kontekst orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, olimlarning e'tiborini tortgan masalalardan biri omonimlarning o'rganilishi va tasnifi masalasidir. o'. Yo'ldoshevning tadqiqotlarida omonimlar til taraqqiyoti va leksikologiyasidagi ahamiyati chuqur o'rganilgan. Yo'ldoshev omonimlarning asosiy va ikkinchi darajali omillariga ko'ra yuzaga kelishini ta'kidlaydi, bu esa omonimlarning gramatik va semantic rivojlanishiga turtki beradi. U omonimlarning kontekstual qo'llanishi orqali ularning semantikani boyitishdagi rolini o'rganishni taklif etadi [2].

SINONIMLAR SEMASOLOGIYASI

Sinonimlar esa o'zbek tilida ma'nodosh so'zlar deb ataladi va ular o'zbek adabiy tili boyligida muhim o'rin tutadi. Sinonimlar bir ma'noni ifodalaydi, lekin ularning o'zaro talaffuz va shakli bir- biridan farq qiladi. o'zbek tilida sinonimlar ma'lum bir ma'noni turli xil usulda ifodalash imkonini beradi. Masalan, "go'zal" va "chiroyli" so'zlari bir xil ma'noni anglatadi, ammo ularning qo'llanilishi uslublarga qarab farqlanadi.

A.g'ulomov va H.Bozorov kabi tilshunoslar sinonimlar semasologiyasi bo'yicha muhim ilmiy izlanishlar olib brogan. g'ulomovning tadqiqotlariga ko'ra, sinonimlar asosan uchta guruhga bo'linadi: leksik sinonimlar, stilistik sinonimlar va semantik sinonimlar. Leksik sinonimlar bir xil ma'noni anglatib, ularning ishlatilishi tilshunoslar tomonidan chuqurroq o'rganilgan, masalan, "tez" va "shoshilinch" bir xil ma'noni ifodalaydi. Stilistik sinonimlar esa turli uslubiy ma'nolarga ega, masalan, "yashamoq" va "hayot kechirmoq" so'zlari asosan uslubiy farq bilan ajralib turadi. Semantik sinonimlar esa ma'nolar o'rtasidagi nozik farqlarga ega bo'lgan so'zlardir, masalan, "kata" va "ulug'" so'zlari o'zaro sinonim bo'lsa-da, ularning ma'nodagi farqi mavjud. o'zbek tilida sinonimlarning ko'p qo'llanilishi va ularning turlicha shakllanishi tilning boy leksik salohiyatidan dalolat beradi. Shuningdek, sinonimlar nafaqat adabiy tilda, balki xalq og'izaki ijodida ham keng qo'llaniladi. Tilshunos olimlar sinonimlarni o'rganish davomida ularning stilistik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Masalan, A.g'ulomovning tadqiqotlarida sinonimlarning uslubiy imkoniyatlari va ularning badiiy nutqdagi roli chuqur tahlil qilingan. g'ulomovning fikriga ko'ra, sinonimlar uslubiy jihatdan boy imkoniyatlar yaratadi, bu esa badiiy asarlarning ifoda uslublarini kengaytirishga yordam beradi [3]

Shuningdek, sinonimlarning qo'llanish chegaralari ham o'rganish uchun muhim yo'nalishdir. Ularning semantic chegaralari, ya'ni bir so'zni boshqa sinonim bilan almashtirilishida ma'nodagi nozik o'zgarishlar tahlil qilingan. Masalan, A.Jo'rayevning asarlarida sinonimlarning badiiy asar va ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishi tahlil qilinib, ularning nutq va yozuv uslubidagi roli o'rganilgan [4].

OMONIM VA SINONIMLARNING STILISTIK VA AMALIY AHAMIYATI

Tilshunoslikda omonimlar va sinonimlarning stilistik va amaliy ahamiyati kata o'ringa ega. Omonimlar o'zlarining ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lishi tufayli tilning estetik qirralarini boyitishga xizmat qiladi. Ular, ayniqsa,

she'riyat va badiiy asarlarda keng qo'llaniladi. Omonimlarning uslubiy imkoniyatlarini qo'llash orqali yozuvchi yoki shoir o'quvchi e'tiborini jalb qilishi va nutqqa chuqur ma'no berishi mumkin. Shuningdek, omonimlarning tilning nozik jihatlarini ifodalashdagi roli ham kata ahamiyatga ega.

Sinonimlar esa nutqni boyitish vositasi sifatida tilning ifodalanish qobiliyatini oshiradi. Ular nutqda bir xil ma'noni ifodalovchi so'zlarning xilma-xilligi orqali uslubiy boyluk yaratadi. Masalan, biror gapda bir so'zning bir necha marotaba takrorlanishi o'rniga, sinonimlardan foydalanish orqali gapni yanada boyitish mumkin. Bu jihatdan sinonimlar stilistik jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Bozorboyevning fikriga ko'ra, sinonimlar orqali nutqning ifodaliligi, uslubiy va estetik ahamiyati oshadi. Tilning badiiy asarlar va adabiy til doirasida rivojlanishi aynan sinonimlar vositasida amalga oshiriladi, bu esa ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi [5].

OMONIM VA SINONIMLARNING o'QUV JARAYONIDAGI o'RNI

Omonimlar va sinonimlar faqat ilmiy tilshunoslik tadqiqotlari uchun emas, balki o'quv jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ularning til o'rganuvchilar uchun ahamiyati o'quvchilarni tilning boy ma'nolar olamini anglash va nutqni to'g'ri, aniq va uslubiy jihatdan boyitilgan shaklda ifodalashga o'rgatishdan iborat. Tilshunoslar til didaktikasida omonimlar va sinonimlarni chuqur o'rganishni tavsiya qiladilar, chunki ular tilni nafaqat semantic, balki pragmatic jihatdan ham boyitadi.

o'zbek tilida omonim va sinonimlarni o'qitish til o'rganuvchilar uchun tilning murakkab jihatlarini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, omonimlar bilan ishlashda talabalarga kontekstual farqlarni tushuntirish juda muhimdir, chunki ularni tushunmaslik til xatolariga olib kelishi mumkin. Sinonimlar bilan ishlash esa o'quvchilarni nutqda xilma-xillik yaratishga, ifodalashda aniqroq va estetik jihatdan boyroq bo'lishiga o'rgatadi. Til didaktikasida sinonimlarni o'rganish orqali o'quvchilar adabiy tilning uslubiy va badiiy jihatlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin [6].

TADQIQOTLARNING ISTIQBOLLARI

Omonim va sinonimlarning o'zbek tilshunosligida chuqur o'rganilishi bilan birga, kelajakda ularni yanada chuqur tahlil qilish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, tilshunos olimlar omonimlarning texnologik rivojlanish bilan bog'liq yangi ma'nolarini qanday qabul qilayotganligini va sinonimlarning zamonaviy nutqdagi o'rni qanday o'zgarayotganligini o'rganishlari mumkin. Bu til taraqqiyoti va uning ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar bilan aloqadorligini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Hozirgi zamon tilshunosligi ko‘proq sun‘iy intellect va kompyuter lingvistikasi bilan integratsiyalashmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, omonim va sinonimlarning kompyuterda avtomatik tahlili, ayniqsa, mashina tarjimasini va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Sun‘iy intellect algoritmlari uchun omonim va sinonimlarning aniqligi va kontekstual tahlili katta ahamiyatga ega, bu esa kelajak tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [7].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilshunosligida omonimlar va sinonimlar semasologiyasi tilning boy leksik imkoniyatlarini tadqiq qilishda muhim o‘rin tutadi. Omonimlar tilning ko‘p manoli imkoniyatlarini ochib bersa, sinonimlar esa tilning ifodalilik jihatlarini kengaytiradi. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilganidek, omonim va sinonimlarning semasologik tadqiqi nafaqat ilmiy ahamiyatga, balki amaliy qo‘llanilishga ham ega. Tilshunoslarimiz ushbu hodisalarni chuqur o‘rganib, ularning til boyligiga qo‘shgan hissasini yoritib berishgan. Kelajakda omonim va sinonimlarning texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq yangi ma‘nolarni o‘rganish, ularning NLP va sun‘iy intellekt tizimlarida qanday qo‘llanilishini chuqur tahlil qilish ilmiy tadqiqotlar uchun yangi ufqlar ohib beradi. Shuningdek ularning o‘quv jarayonida kengroq qo‘llanilishi til o‘rganuvchilarning bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR Ro‘YXATI

1. N.Mahmudov, “Omonimlarning semantic xususiyatlari”, o‘zbek tili va adabiyoti, 2003.-57-bet.
2. O.Yo‘ldoshev, “o‘zbek tilidagi omonimlarning kelib chiqish omillari”, o‘zbek tilshunosligi masalalari, 2006.-113-bet.
3. A.g‘ulomov, “Sinonimlar va ularning stilistik xususiyatlari”, Tilshunoslik izlanishlari, Toshkent, 2005.-89-bet.
4. A.Jo‘rayev, “Badiiy asarlardagi sinonimlar tahlili”, Filologiya masalalari, 2012.-73-bet.
5. H.Bozorboyev, “Sinonimlarning leksik-semantik tahlili”, o‘zbekiston tilshunosligi masalari, Tshkent, 2010.-62-bet.
6. S.g‘aniyeva, “Til didaktikasida sinonimlar va omonimlar o‘rgatish usullari”, Pedagogika va tilshunoslik, 2017.-45-bet.
7. A.Umarov, “sun‘iy intellect va omonimlar tahlili: NLPda yangi yo‘nalishlar”, Zamonaviy tilshunoslik, 2020.-98-bet.

VOLUME-2, ISSUE-10

**OITS VA OIV KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISH
CHORA TADBIRLARI**

To'ychiyev H.H., Eshkaraev S.Ch.

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz sh, Farovon massivi
43B-uy, e-mail: esadir_74@rambler.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada OITS kasalliklarning turlari, ularning kelib chiqishi va hozirda ularga kurashish yo'llari haqida, ularning zararli oqibatlari haqida ma'lumot berilgan. Bu maqolada hozirda bunday kasalliklar bilan kurashib kelayotgan ularga qarshi kurashish chora tadbirlari to'g'risida, yuqish yollari ulardan qanday himoyalani chora, tadbirlari davolash turlari

Kalit so'zlar: OITS,OIV.

AIDS AND HIV DISEASES AND THEIR PREVENTION MEASURES

Toychiyev HH, Eshkaraev S.Ch. Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon massif 43B, e-mail: esadir_74@rambler.ru **Abstract.**

This article provides information about the types of AIDS diseases, their origin and current ways of combating them, as well as their harmful consequences. This article is about measures to fight against such diseases, the ways of transmission, how to protect against them, measures, measures and types of treatment.

Key words: : OITS,OIV.

СПИД И ВИЧ-ЗАБОЛЕВАНИЯ И МЕРЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ

Туйчиев Х.Х., Эшкараев С.Ч. Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, массив Фараван 43Б-дом, e-mail: esadir_74@rambler.ru

Аннотация. В данной статье представлена информация о видах заболеваний СПИД, их происхождении и современных способах борьбы с ними, а также их пагубных последствиях. В данной статье речь идет о мерах борьбы с такими заболеваниями, путях передачи, способах защиты от них, мерах, мерах и видах лечения. Ключевые слова: СПИД, ВИЧ,

KIRISH

Vaqt o'tishi bilan tibbiyot kabi ilmlar tobora rivojlanib bormoqda, bu narsa umr ko'rish davomiyligini, uning sifati va farovonligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi. Shu tufayli, bugungi kunda bir vaqtlar o'lik holatga olib kelgan kasalliklarning aksariyati muvaffaqiyatli davolanishi mumkin, ayrim hollarda kasallikning o'zi ham yo'q qilingan. Shunga qaramay, tibbiyot uchun OITS, saraton yoki diabet kabi katta muammolarni keltirib chiqaradigan har xil turdagi kasalliklar mavjud. Ularga qo'shimcha ravishda, otabobolarimiz tomonidan yuqtirilgan va asosan davosi bo'lmagan genlar bilan bog'liq bo'lgan


kasalliklarning katta guruhi mavjud(garchi ba'zida simptomlarni kamaytiradigan yoki sekinlashtiradigan yoki tuzatadigan, kamaytiradigan muolajalar topilsa ham yoki mavzuda va ularning kundalik hayotida yuzaga keladigan ta'sirni yo'q qilish). Biz to'plam haqida gapiramiz irsiy kasalliklar, biz ushbu maqola davomida aks ettiradigan kontsepsiya;OITS kasalliklar.Uqanday qasallik yuqish yo'llari qanday .


Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) – retrovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik bo'lib, ikki davrga bo'linadi: OIV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OIV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali namoyon bo'lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtda Parijda professor Lyuk Montanye hamda AQShda professor Gallo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983-yil). Bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, SD4+ immun hujayralariga qirg'in keltiradi. Virus odam organizmiga tushgach, 2–3 kundan so'ng, 25–30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Bu „o'tkir serokonversiya sindromi“ deb ataladi, bunda harorat ko'tariladi, tunda terlash, bo'g'imlar va bosh og'rig'i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa, uning yuqori qismida toshmalar paydo bo'lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog'liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immunitet tizimining javobi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Kasallikning bu davri 8–10 yilgacha, ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda OIV infeksiyasi tashxisini qo'yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo'lgan antitelolarni aniqlash – immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so'ng shakllana boshlasa ham, qo'llanadigan diagnostikumlar ularni ilg'ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to'g'risida virus organizmga tushganidan so'ng 90 kun o'tkazib olingan tekshirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

Sabablari

Virus qanday paydo bo'lgan?

OIVning kelib chiqish tarixi noaniq. Bir nechta farazlar mavjud. Ularning asoslari bor, ammo ularning barchasi faqat ilmiy hamjamiyatdagi taxminlar deb hisoblanadi. Birinchi farazlardan biri kasallikning kelib chiqishini maymunlar bilan bog'laydi. Taxminan yigirma yil oldin, olim B. Korbett OIV 1930-yillarda shimpanze orqali, tishlash yoki bu maymunning qoni va go'shtiga tegish orqali inson tanasiga kirgan bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan. Ushbu gipoteza shimpanzelarning qonida OITSGa o'xshash holatni keltirib chiqaradigan shunga o'xshash virus mavjudligi bilan ifodalanadi. Boshqa bir olim, professor R. Garrining fikricha, bu kasallik ancha eski va uning tarixi 1900 yildan boshlangan deb hisoblaydi. XX asr boshlarida aniqlangan Kaposi sarkomasini ushbu gipotezaning isboti hisoblanadi. Bu immunitet tanqisligi virusining dalilidir.





YUQISH YO'LLARI

Jinsiy aloqa. OITSni yuqtirishning asosiy yo'li - yuqtirgan odam bilan himoyalangan jinsiy aloqa. Inyeksiya ignalari almashinuvi. Yuqtirgan odamga ishlatilgan shprits va ignadan foydalanish.

Bachadondan bolaga yuqishi. Infeksiyalangan ona virusni homiladorlik paytida, tug'ish paytida yoki emizish paytida, agar ehtiyot bo'lmasa va dori-darmonlarni qabul qilmasa, bolasiga yuqtiradi. Infeksiyalangan qonni quyish. Virusni qon orqali yuqtirish - o'tgan asrning asosiy muammosi bo'ldi. Qonni tekshirishning zamonaviy usullari bu xavfni sezilarli darajada kamaytirdi.

OIV rivojlanish bosqichlari 4 ta bosqichdan iborat:

1-bosqich (inkubatsiya bosqichi). Kasallik ilk paytidan kasallikning klinik belgilari paydo bo'lishigacha bo'lgan davr. Muddati: 2 haftadan 6-8 oygacha. Testlar virus mavjudligini aniqlay olmaydigan bosqich, ammo u allaqachon sheriklar va qabul qiluvchilarga yuqadi.

2-bosqich (birlamchi yoki faol bosqich): infeksiyadan so'ng, ko'p odamlarda simptomlar bilinmaydi yoki grippga o'xshash yengil namoyon bo'ladi. Odatda 2 oygacha davom etadi.

3-bosqich (surunkali bosqich): virus ko'payadi, lekin ko'pchilik odamlar simptom bilinmaydigan holatda bo'ladilar. Bu 2 yildan 20 yilgacha, ko'pincha 6-7 yil davom etadi.

4-bosqich (OITS): agar davolanish boshlanmasa, infeksiya OITS bosqichiga o'tishi mumkin, bu immunitetning jiddiy buzilishi, ma'lum asoratlarning paydo bo'lishi xavfini paydo qiladi. 1 yildan 3 yilgacha davom etishi mumkin. Keyin yuqtirgan odam opportunistik kasalliklardan vafot etadi. Chunki virusli va bakterial hujayralar miya, nafas olish, ovqat hazm qilish, mushak-skelet tizimi kabi tananing hayotni ta'minlovchi organlariga ta'sir qiladi.

Belgilari

OIVning dastlabki belgilari (infektsiyadan 2-4 hafta o'tgach):

Isitma.

Bosh og'rig'i.

Mushaklar va bo'g'imlarning og'rig'i.

Tomoq og'rig'i (faringit).

Limfadenopatiya (kengaygan limfa tugunlari).

Diareya

Taloqning kattalashishi

Stomatit

Dog'li toshmaEnsefalitKo'p odamlar uzoq vaqt davomida alomatlarni sezmaydilar.OITSning kech belgilari (agar antiretrovirus terapiya qabul qilinmasa)doimiy charchoq.Vazn yo'qotish.

Takrorlanuvchi og'ir infeksiyalar (og'iz infeksiyalari, pnevmoniya va boshqalar).

Tez-tez diareya va kandidoz (zamburug'li infeksiyalari).

Shish, yara va boshqa teri muammolarining paydo bo'lishi.

Antibiotiklarga qarshi immunitet.

STATISTIKA

Bugungi kunda Respublikamizda 45 ming nafar odamlar OITS bilan yashab kelmoqda. Ulardan 55 foizi erkaklar, 45 foizi ayollar, 14 foizini esa 18 yoshga to'lmagan bolalar tashkil etadi

2006 yilda OIV bilan kasallanganlar soni:



VOLUME-2, ISSUE-10

Biz — 39,5 million (34,1 — 47,1 million)
Qariyalar - 37,2 million (32,1 - 44,5 million)
15 yoshgacha bo‘lgan bolalar - 2,3 million (1,7 - 3,5 million)
2006 yilda OIV infeksiyasi:
Biz — 4,3 million (3,6 — 6,6 million)
Qariyalar - 3,8 million (3,2 - 5,7 million)
15 yoshgacha bo‘lgan bolalar - 530 000 (410 000 - 660 000)
2006 yilda OITSdan vafot etganlar:
Biz - 2,9 million (2,5 - 3,5 million)
Qariyalar - 2,6 million (2,2 - 3,0 million)
15 yoshgacha bo‘lgan bolalar - 380 000 (290 000 - 500 000)

Yuqorida aytib o'tganimizdek, hozirda OIV bilan kasallangan 40 million kishi bor. Ularning 2/3 qismi Afrika mamlakatlarida yashaydi. Kasallik bu yerda o'tgan asrning 70-yillarida keng tarqalgan edi. OIV bilan yashayotganlarning aksariyati (5 million) Sharqiy Afrika mamlakatlarida yashaydi. Hozirda virus Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropada “jasur”. 1999 yildan 2002 yilgacha ushbu hududlarda OIV bilan kasallanganlar soni uch baravar ko'paygan. Bu, asosan, giyohvandlar va giyohvandlar bilan bog'liq.

XULOSA

Respublikamizning barcha ma'muriy hududlaridagi OITSGa qarshi kurash markazlarida Ishonch va Anonim xizmat ko'rsatish xonalari faoliyat yuritmoqda. Bu maskanlarda bemorlar o'zlarini saqlagan holda bepul maslahat olib, lozim topilsa, laboratoriya tekshiruvidan o'tishi mumkin.

Aytish joizki, faqat insonning ongi va hulqi o'zgargandagina OIVga qarshi chora-tadbirlar o'z samarasini beradi. Shuning uchun inson o'zini turli xil xastaliklardan asray bilish, uzoq umr ko'rish va farovon hayot kechirishga tayyorlashi lozim. Buning birdan-bir yo'li sog'lom turmush tarzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kh.K. Shodiev, K.R. Ahmedov. Teri va tanosil kasalliklari, 2010, Toshkent: In Sino — 40-42-bet.
2. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik" asari,
I.A.Karimov
 - "Giyohvand moddalarni iste'mol qilishning zararini kamaytirish dasturi" (O'quv qo'llanma), Toshkent-2008y.ref.uz
3. • "Darakchi"("Ogohlik")– gazetasi, №47soni,
25.11.2010 y.
4. • emedic.uz
5. • google.ru
6. • med.uz
7. 4. Rukovodstvo po detskoy artrologii. Pod red.akad. AMN SSSR M.Ya Studenikina i porf.
8. A.A.Yakovlevoy.-L. 1987.-S. 162-170.
9. 5. Spravochnik vracha obshey praktiki. Pod redaksiy akad. RAMN. - R.Paleeva. EKSMO
10. 2002 g
11. 6. Spravochnik pediatria. Sankt-Peterburg, Moskva, 2004 god. 18.
12. 7. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded,

Temirbeton ko'priklarning gidroizolyatsiyasi va undagi nuqsonlar

Barotov Ashurali Ixtiyor o'g'li,

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada temirbeton ko'priklarda gidroizolyasiyaning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan va tahlil natijalari keltirilgan.

Annotation: This article provides information on the importance of waterproofing in reinforced concrete bridges and presents the results of the analysis.

Kalit so'zlar: ko'prik; konstruksiya; gidroizolyasiya; izolyasiya; darz.

Keywords: bridge; construction; waterproofing; insulation; crack.

Temirbeton ko'priklar elementlarining uzoqqa chidamliligini ta'minlash uchun, ularning konstruksiyasi betonga suv kirishidan himoyalangan bo'lishi lozim. Suvning betonga davomli ta'siri ohakning erishi va yuvilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida beton mustahkamligini pasaytiradi va uning asta-sekin yemirilishiga olib keladi (1-rasm). Bu jarayon ayniqsa navbatma-navbat muzlab – erishda tez kuzatiladi [1].




1-rasm. Temirbeton ko'prik konstruktiv elementlarining yemirilishi

Betanni suv ta'siridan himoyalash uchun u gidroizolyasiya bilan qoplanadi. Gidroizolyasiya ballast koritasi plitasi yuzasiga qilinadi (2-rasm). Suvning oqishi uchun plita yuzasiga qiyalik beriladi. Izolyasiyaning chetlari bortlarning maxsus chuqurchalariga mahkamlanadi [2-5].

Ballast koritasining gidroizolyasiyasi butun izolyasiya qilingan yuza bo'yicha suv o'tkazmaydigan bo'lishi, suvga, biologik va kimyoviy ta'sirlarga bardoshli bo'lishi, issiq-sovuqqa bardoshli bo'lishi, vaqt davomida va hisobiy haroratlar

intervalida elastikligini yo'qotmasligi, betonning izolyasiya qilingan yuzasida ruxsat etilgan darzlar paydo bo'lganida yaxlitligini saqlashi kerak [6-8,16].



2-rasm. Ballast koritasining gidroizolyasiyasi ko'ndalang kesimi

Ballast koritasining izolyasiyasi quyidagi talablarni bajarishi shart:



Gidroizolyasiya sement-qum qorishmasi yoki mayda donali betondan iborat bo'lgan tayyorlov (tekislov) qatlami ustiga surtiladi [1, 9]. Gidroizolyasiyani yotqizishdan oldin tayyorlov qatlami gruntovka bilan qoplanadi (3-rasm).


Qurilish hududining klimatik sharoitlariga bog'liq holda gidroizolyasiyaning turli tiplari qo'llaniladi. Bitum mastikali BM-1 indeksli gidroizolyasiya barcha klimatik zonalarda qo'llanilishi mumkin [10,11]. Bu gidroizolyasiya qaynoq holda surtiladigan to'rt qatlam bitum mastikasidan va uch qatlam shishamato yoki lyon – jut-kanop matosidan iborat.



3-rasm. Ko‘prik poltnosida gidroizolyatsiyani yotqizilish jarayonlari

Bitum mastikasining oxirgi (tekislovchi) qatlami ustiga **sement – qum** qorishmasi yoki mayda donali betondan iborat himoya qatlami yotqiziladi. Bu qatlam diametri $2\div 4\text{mm}$, yacheyka o‘lchamlari $45\div 75\text{mm}$ bo‘lgan simdan tayyorlangan setka bilan armaturalanadi [12-15]. Himoya qatlamining tayyor bo‘lgan yuzasiga bitum gruntovkasi surtiladi.

Izol rulonli gidroizolyasiya (indeksi IR) yumshoq iqlimli hududlarda qo‘llaniladi. Bu izolyasiya asosiy bo‘lmagan rulonli izol va sovuq izol mastikadan iborat [21, 22]. Izol mastikaning ichida armaturalangan qatlam bo‘ladi va u rulon qatlamlari orasiga yopishtiriladi (4, *b*-rasm).



4-rasm. Izolyasiya qilishning variantlari: a) – bitum mastika (BM-1);
b) – rulonli izolyasiya (IR); 1 – himoya qatlami; 2 – bitumli gruntovka;
